

DAVLAT ISHTIROKIDAGI YIRIK KORXONALARDA KORPORATIV IJTIMOY MAS'ULIYATNING O'RNI

Xidirova Marg'uba Rustamovna

TDIU, Korporativ boshqaruv kafedrasi. Dots.

Jo'rayeva Gulnoza

TDIU, Biznes boshqaruv fakulteti. Magistr.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14514275>

Annotatsiya: Ushbu maqolada davlat ishtirokidagi yirik korxonalarda korporativ ijtimoiy ma'suliyatning mavjudligi, uning ahamiyati, korxona rivojidagi o'rni, bugungi kundagi korporativ boshqaruv sohasidagi transformatsiyalar, korporativ ijtimoiy ma'suliyatni korxonalarda joriy qilishdagi muammolar va ularga yechimlar ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: davlat ishtirokidagi yirik korxona, korporativ ijtimoiy ma'suliyat, transformatsiya, korporativ boshqaruv

Anotation: In this article is discussed the existence of corporate social responsibility in large enterprises with state participation, its importance, its role in the development of the enterprise, today's transformations in the field of corporate governance, problems in the implementation of corporate social responsibility in enterprises and their solutions.

Key words: large enterprises with state participation, corporate social responsibility, transformations, corporate governance

KIRISH

Iqtisodiyotda tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirishda davlat kompaniyalarini transformatsiya qilishni jadallashtirish borasida keng qamrovli islohotlarni amalga oshirish lozimligi alohida ta'kidlandi. Ma'lumki, iqtisodiyotning tegishli tarmoqlari va yirik korxonalarda davlat ulushining uzoq vaqt saqlanishi bozor mexanizmlariga o'tishning kechikishiga, mehnat unumdorligini oshirish, yangi turdagi raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish va sohaga ilg'or texnologiyalarni joriy etish, xususiy kapitalni faol jalb qilgan holda yangi ish o'rinlari yaratishga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Shu maqsadda davlat korxonalari transformatsiya qilinadi. Ya'ni, transformatsiya dasturi ularning ishlab chiqarish, xarid qilish, sotish va investitsiyaviy faoliyat samaradorligini oshirishga va mahsulot sifatini oshirishga qaratilgan tadbirlar majmuini o'z ichiga oladi. Natijada davlat korxonalarining xalqaro bozorda raqobatbardosh o'ringa ega bo'lishi, ular faoliyatida xususiy kapital ishtiroki, ochiqlik va shaffoflikka asoslangan zamonaviy korporativ boshqaruv tizimining yaratilishi ta'minlanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Ayni vaqtda mamlakatimiz bosib o'tgan taraqqiyot yo'lining chuqur tahlili, bugungi kunda jahon bozori konyukturasi keskin o'zgarib, globallashtirish sharoitida raqobat tobora kuchayib borayotgani davlatimizni yanada barqaror va jadal sur'atlar bilan rivojlantirish uchun mutlaqo yangicha yondashuv hamda tamoyillarni ishlab chiqish va ro'yobga chiqarishni taqozo etmoqda [1]. Bugungi kunda samarali korporativ boshqaruv tizimi investitsion qarorlar qabul qilishda hal qiluvchi omil sifatida qaralmoqda [2] va shu sabab korporativ boshqaruv tizimi mavjud bo'lmagan kompaniya raqobatbardosh va investitsion jozibador bo'lish uchun bozorning to'liq ishtirokchisiga aylanish imkoniyatiga ega emas. Jahon amaliyotida so'nggi o'n yillikda korporativ boshqaruvga bo'lgan bunday jiddiy e'tiborning asosiy mezonini investorlar uchun yanada xavfsizroq va qulay muhit yaratish istagi hisoblanadi

[3]. O'zbekiston Respublikasi Korporativ boshqaruv kodeksiga ko'ra, Korporativ boshqaruv – bu aktsiyadorlik jamiyati ijroiya organi, uning kuzatuv kengashi, aktsiyadorlari, mehnat jamoasi vakillari va boshqa manfaatdor tomonlar, jumladan kreditorlarning manfaatlarining muvozanatiga erishish maqsadida, AJ faoliyatini samarali tashkil etish, modernizatsiyalash, ishlab chiqarish quvvatlarini texnik va texnologik qayta qurollantirish, raqobatbardosh mahsulotni ishlab chiqarish va uni tashqi bozorlarga eksport qilishni ta'minlashga qaratilgan o'zaro munosabatlar tizimidir [4].

N.Alhosani va H.Nobaneelar korporativ ijtimoiy mas'uliyatning mohiyatini yoritib berishgan. "Korporativ ijtimoiy mas'uliyat kompaniya manfaatlaridan va qonun talab qiladigan jihatlardan tashqari ma'lum bir ijtimoiy manfaatlar uchun amalga oshiriladigan harakatlar deyish mumkin. Shuningdek, ba'zi olimlar korporativ ijtimoiy mas'uliyatni kompaniyaning barqaror rivojlanishida qonuniy talablardan tashqari ixtiyoriy amalga oshiriladigan xatti-harakatlar deb ta'kidlashgan. Shu sababli korporativ ijtimoiy mas'uliyatni iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik jihatdan mos keladigan uzoq muddatli tizimni shakllantirish jarayoni sifatida ko'rish mumkin" [5].

M.Tang va Y.Wang korporativ ijtimoiy mas'uliyatning ijobiy jihatlariga e'tibor qaratishgan. "Korporativ ijtimoiy mas'uliyatni amalga oshirish atrof-muhit, jamiyat, xodimlar va boshqa manfaatdor tomonlarning samaradorligini oshirishga yordam beradi. Ijtimoiy farovonlik haqida qayg'uradigan hukumatlar korporativ ijtimoiy mas'uliyatni amalga oshirishning jamiyatga ijobiy ta'sirini hisobga olgan holda kompaniyalarni korporativ ijtimoiy mas'uliyatni amalga oshirishga rag'batlantiradi. Xususan, soliq imtiyozlari, odatda, kompaniyalarning mavjud mablag'larini ko'paytiradi va bu orqali kompaniyalarni o'zlarining ijtimoiy mas'uliyatlarini bajarish qobiliyatini oshiradi" [6].

Bir guruh olimlar ta'kidlashicha, "korporativ ijtimoiy mas'uliyat kompaniyalar o'z faoliyatini jamiyat qadriyatlariga muvofiq rivojlantirishi, shuningdek, manfaatdor tomonlarning talablarini qondirishi majburiyatlarini o'z zimmasiga olishini bildiradi. Korporativ ijtimoiy mas'uliyat samaradorligining uchta asosiy yo'nalishi ekologik, ijtimoiy va iqtisodiy yo'nalishlar hisoblanadi. Innovatsiyalar ham korporativ ijtimoiy mas'uliyat hamda barqarorlik standartlari va maqsadlariga mos kelishi kerak. Shuning uchun kompaniyalar tomonidan innovatsion strategiyalarning ajralmas qismi sifatida korporativ ijtimoiy mas'uliyatga ko'proq e'tibor qaratilmoqda hamda innovatsiya va korporativ ijtimoiy mas'uliyat munosabatlariga qiziqish tobora ortmoqda".

Y.Luo va boshqalar korporativ ijtimoiy mas'uliyatni mohiyatan yoritishga harakat qilishgan. Shuningdek, korporativ ijtimoiy mas'uliyat strategiyasining ahamiyatini yoritishgan. "Korporativ ijtimoiy mas'uliyat bu normativ yoki qonundagi talablardan tashqari bajariladigan korporativ ekologik va ijtimoiy xatti-harakatlar yig'indisi hisoblanadi. Korporativ ijtimoiy mas'uliyat kompaniyalarning aktsiyadorlar, xodimlar, mijozlar, yetkazib beruvchilar, jamoalar, hukumatlar va atrof-muhit oldidagi mas'uliyatini qamrab oladi. Shuningdek, boshqaruv nazariyasida korporativ ijtimoiy mas'uliyat direktorlar kengashlari tomonidan ishlab chiqiladigan korporativ strategiyada muhim hisoblanadi" [8].


Ushbu ilmiy ish bo'yicha izlanishlar olib borish jarayonida turli usullardan foydalanilgan. Ma'lumot yig'ish, saralashda ayirish usullaridan foydalanilgan. Tadqiqot "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnalidan olingan natijalar induksiya usuli orqali

yakuniy xulosa sifatida chiqarildi. Moliyaviy va moliyaviy bo'lmagan ma'lumotlarni taqqoslash va tadqiqot natijalarini olish uchun statistika keng qo'llanildi. Shu bilan birga, ilmiy tadqiqotlar olib borishda tahlil qilish usuli orqali korporativ ijtimoiy ma'suliyat va tashkiliy xatti-harakatlar o'rtasidagi munosabatlar o'rganildi. Muhokamani umumlashtirishni hisoblash uchun sintez usuli ishlatilgan.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Olib borilgan tadqiqotlarga ko'ra tashkilot va bizneslarning daromad olish bilan birga, jamiyatning rivojlanishiga o'z hissasini qo'shishi (hayriya ishlarini bajarish, o'z xodimlarining haq-huquqlarini ta'minlash, ijtimoiy muammolarni yechishda o'z hissasiga ega bo'lish), ularning barcha manfaatdor tomonlari oldidagi ma'suliyatni bajarishi, o'z faoliyati davomida tabiatga zarar yetkazmaslik hamda milliy qonunlarga rioya qilishi, ta'minot tizimi mas'uliyatini ta'minlashi va hokazolar KIM ning asosiy talablaridir. KIMni faol tashkil qilinishiga misol qilib Rossiyaning "IMMER GROUP" korxonasini keltirish mumkin. Bu korxona KIM orqali uyg'un integratsiyani ta'minlaydigan kompaniyaning uzoq muddatli va barqaror rivojlanishiga erishib kelmoqda. "IMMER GROUP" o'zining KIM siyosati bilan ko'p yutuqlarga erishib kelmoqda va investitsion jozibadorligini, raqobatbardoshligini oshirmoqda. Bu siyosati orqali nafaqat kompaniyaning o'ziga, balki jamiyatga, xodimlarga va atrof-muhitga foyda keltirmoqda. "IMMER GROUP" ning biznes yuritishda korporativ ijtimoiy mas'uliyatli yondashuvi quyidagilarni beradi:


- mahsulotlar orqali iste'molchilarining talablarini yuqori sifatli qondirish;
- qonun hujjatlariga benuqson rioya qilish;
- mehnat xavfsizligini ta'minlash va inson taraqqiyotiga sarmoya kiritish;
- atrof-muhitga g'amxo'rlik qilish;
- manfaatdor tomonlarning taxminlari va fikrlarini hisobga olgan holda, qurilishga tizimli yondashish
- ular bilan axloqiy talablar asosida vijdonan va o'zaro manfaatli munosabatlar o'rnatish;
- ochiqlik va shaffoflik, ijtimoiy hisobotni rivojlantirish.



1-rasm. Korporativ ijtimoiy mas'uliyatning ijobiy ta'sirlari

1-rasmdan ko'rish mumkinki, korporativ ijtimoiy mas'uliyat jamiyatdagi muammolarni hal etishga, atrof-muhitni yaxshilashga hamda korxona uchun iqtisodiy samaradorlikka erishishga yordam beruvchi vositalardan biri sifatida amalda qo'llanmoqda.

Korporativ ijtimoiy mas'uliyatni amalga oshirishda, albatta, bu bo'yicha korporativ boshqaruv organlari tomonidan korporativ ijtimoiy mas'uliyat strategiyasi ishlab chiqilishi lozim. Korporativ ijtimoiy mas'uliyatni amalga oshirish bir necha bosqichlardan iborat (2-rasm).



2-rasm. Korporativ ijtimoiy mas'uliyatni amalga oshirish bosqichlari [2]

Korporativ ijtimoiy mas'uliyatni amalga oshirishning 1-bosqichida strategiya shakllantiriladi. So'ng uni baholandi. 3-bosqichda esa KIM bo'yicha maqsadlar aniqlanib, tuzilgan strategiyani rivojlantiriladi. So'ngi bosqichda esa amaliyotga joriy etilib, kuzatuv ishlari olib boriladi.

XULOSA

O'zbekistonda KIM tamoyillari va mas'uliyatli biznes talablarini ishlab chiqish uchun quyidagilarni tavsiya qilish mumkin:

- Biznesning oshkoraligini rag'batlantiradigan qonunlarni ishlab chiqish va bu prinsipga amal qiluvchilarni qo'llab quvvatlash;
- Davlat darajasida KIMni ta'minlash. Bizdagi jamiyatning passivligi sharoitida, dastlabki bosqichda hukumat KIMni rivojlantirish bo'yicha asosiy islohotchi sifatida harakat qilishi kerak. Ushbu sohada yuqorida keltirilgan qator xalqaro qo'llanmalar asosida standartlar ishlab chiqish lozim;
- Nomoliyaviy hisobotlarni chop etishni rag'batlantirish va bu borada yo'l-yo'riqlar ishlab chiqish;
- Tadbirkorlarni o'z bozorlarini kengaytirish va mahsulot sifatini ta'minlashlari uchun ta'minot zanjirlaridagi mas'uliyatlarini xalqaro ko'rsatmalarga asosan amal qilishlarini rag'batlantirish;
- KIM tamoyillarini targ'ib qilishda ommaning saviyasini oshirish (ma'ruzalar, seminarlar, brifinglar, ommaviy axborot vositalarida intervyular va x.z.). KIM tamoyillari va uning rivojlanishi bilan bog'liq tadqiqotlar va nashrlarni rag'batlantirish;
- Biznes va tashkilotlarga KIMni rivojlantirish maqsadida maslahat xizmatlarini tashkil qilish;

Xorijiy va ko'p millatli korxonalardan boshqa rivojlangan davlatlarda amalga oshiradigan KIM va xalqaro standartlariga amal etish tartiblarini xuddi shunday tarzda O'zbekistonda ham rioya qilishlarini talab etish.

References:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF 60-sonli farmoni "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi".
2. Adrian Cadbury. Korporativ boshqaruv kodeksi 1992 yil.
3. Ashurov. Z.A. "KORPORATIV IJTIMOY MAS'ULIYAT". O'quv qo'llanma.- " Innovatsion rivojlanish nashriyot matbaa uyi" – nashriyoti, 2022 yil, 160 bet.
4. Ашуров З.А. " Современное корпоративное управление". Учебное пособие. Тошкент – " Инновацион ривожланиш нашриёт – матбаа уйи" – 2021yil, 222 bet.
5. Elmirzayev.S va Xolmurodov.S ning " KORXONALARDA KORPORATIV IJTIMOY MAS'ULIYATNI AMALGA OSHIRISH " mavzusidagi maqola ISSN: 2181-3957 Vol. 2 Issue 01, 2023. International Journal of Finance and Digitalization
6. <https://www.slideteam.net/corporate-social-responsibility-businessstrategy-powerpoint-presentation-slides.html> - korporativ ijtimoiy mas'uliyat bo'yicha tadqiqotlar e'lon qilinuvchi veb-sayt.